

RAQAMLI IQTISODIYOTNING ELEKTRONLASHTIRISH INFRATUZILMASINI TARMOQLARARO INTEGRATSIYASI

Jabborova Oydinoy

*Andijon davlat texnika instituti Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv
fakulteti 4-kurs Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektronlashtirish infratuzilmasining turli iqtisodiy tarmoqlar bilan o'zaro integratsiyasi, bu integratsiyaning samaradorlikka ta'siri va amaliy jihatlarini yoritilgan. Global raqamli o'zgarishlar fonida, iqtisodiyotning real sektori, sog'liqni saqlash, bank-moliya, qishloq xo'jaligi va transport-logistika tarmoqlari o'rtasida elektron infratuzilmalar orqali axborot almashinuvi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etilishi nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ayniqsa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturining davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, axborot xavfsizligini ta'minlash, kabi masalalar ochiqdirlangan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron infratuzilma, tarmoqlararo integratsiya, Raqamli O'zbekiston – 2030, elektron xizmatlar, avtomatlashtirish, axborot xavfsizligi, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, elektron hukumat.

Dunyoning deyarli barcha davlatlarining tashqi va ichki iqtisodiy faoliyati an'anaviy iqtisodiyot va savdo aloqalaridan uzoqqa chiqib ketishga ulgurdi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlanishi hamda raqamli platformalarining paydo bo'lishi tufayli yuzma-yuz uchrashuvlarga bo'lgan ehtiyoj yo'qolib bormoqda. Har qanday mahsulotni sotib olish uchun hatto oddiy iste'molchi ham uydan chiqmay turib telekommunikatsiya xizmatlarini masofadan turib amalga oshirish imkoniyatiga ega. Raqamli iqtisodiyotning ishlab chiqarish va rivojlanishi zamonaviy infratuzilmalarning, elektron resurslarning infratuzilmasining (ERI) keng miqyosda joriy etilishini talab qilmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy investitsiyalarda samaradorlikka erishish, resurslardan yuk tashish, xizmat ko'rsatish ishlab chiqarish va sifatini oshirishda ERI muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Elektron resurslarning infratuzilmasining turli iqtisodiy va iqtisodiy integratsiyalashuvi, yangi sanoat, qishloq xo'jaligi, bank-moliya, sog'liqni saqlash, transport va xizmat ko'rsatish sohalarida keng miqyosda foydalanish orqali xizmatlar sifati yaxshilashga va ortiqcha vaqtni isrof bo'lishini oldini olish tejalgan resurslarni moddiy texnik bazani yaxshilashga xizmat qilishi orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishimiz mumkin bo'ladi. Integratsiya jarayonlari o'rtasida raqamli axborot olishi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi yechimlar orqali kompleks iqtisodiy ta'minlash mumkinligi asoslab beriladi.

Elektron infratuzilma — bu faqat texnik vositalar majmuasi emas, balki tarmoqlar oʻrtasida axborot almashinuvi, xizmat koʻrsatishning tezkorligi, shaffoflik va xavfsizlikni taʼminlaydigan kompleks tizimdir. Elektronlashtirish orqali iqtisodiyotning real sektori, bank-moliya tizimi, transport-logistika, sogʻliqni saqlash, taʼlim, qishloq xoʻjaligi kabi tarmoqlar oʻzaro bogʻlanadi va raqamli axborot oqimlari asosida ishlashni boshlaydi. Bu esa tarmoqlar oʻrtasida samarali hamkorlikni shakllantirish, vaqt va xarajatlarni qisqartirish, inson omiliga bogʻliq xatoliklarni kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tarmoqlararo integratsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam texnik baza, yuqori tezlikdagi internet tarmogʻi, maʼlumotlar xavfsizligini taʼminlovchi chora-tadbirlar, hamda raqamli savodxonlikka ega malakali kadrlar zarur. Raqamli infratuzilmani tarmoqlararo integratsiya qilish — bu bir yoʻnalishdagi islohot emas, balki jamiyatni raqamli rivojlanishga olib chiquvchi tizimli yondashuvdir. Integratsiya jarayonida “Elektron hukumat”, “Raqamli xizmatlar portali”, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali”, “ERP tizimlar”, “blokcheyn texnologiyasi” va “sunʼiy intellekt” asosidagi yechimlar muhim rol oʻynaydi. Bu tizimlar orqali davlat va xususiy sektor oʻrtasida axborot uzatish, hisob-kitob, monitoring va tahlil qilish ishlari avtomatlashtiriladi.

Maʼlumki, **«Raqamli Oʻzbekiston — 2030» dasturini ishlab chiqish** yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonini qabul qilish chora-tadbiri belgilangan edi. Unda telekommunikatsiya sohasi, davlat xizmatlarini koʻrsatish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, sogʻliqni saqlash, davlat kadastr va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bu borada «Raqamli Oʻzbekiston — 2030» dasturini tasdiqlash; elektron hukumatning texnik infratuzilmasini takomillashtirish; inson kapitalini rivojlantirish hamda kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish; davlat xizmatlarini raqamli shaklga transformatsiya qilish va axborot ekotizimini rivojlantirish; davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini taʼminlash, aholining elektron ishtiroki darajasini oshirish; axborot xavfsizligini, axborot resurslari va tizimlarining himoyasini taʼminlash; raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasidagi yagona vakolatli organi belgilash hamda Hukumat, vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida rahbarning raqamli texnologiyalar va elektron hukumat masalalari boʻyicha oʻrinbosari lavozimini joriy etish kabi masalalar nazarda tutilgandi. Rivojlanishning asosiy maqsadi – elektron infratuzilmasining iqtisodiy tizimi bilan qanday uygʻunlashayotganini, bu integratsiyaning amaliy jihat va mavjud toʻsiqlarini aniqlashda alohida oʻrganiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning elektronlashtirish infratuzilmasini tarmoqlararo integratsiya qilish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, samaradorligi va innovatsion salohiyati ortadi. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi, balki davlat boshqaruvida ham ochiqlik, ishonchlik va

aholi ishtirokini oshiradi. Raqamli iqtisodiy elektron infratuzilmaning tarmoqlararo integratsiyasi zamonaviy boshqaruv va xizmat ko'rsatish tizimlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda kelajakni bu siz tassavur qilish qiyin. Bu jarayon iqtisodiyotning turli soha – bank-moliya, sog'ida saqlash, qishloq xo'jaligi, transport-logistika va boshqalarda samaradorlikni oshirish, inson omiliga bog'liq xatoliklarni yangilash, vaqt va xavfsizlikni yaxshilash imkonini beradi. “Raqamli O'zbekiston 2030” dasturi asosida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, axborotlashtirishni ta'minlash va malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlab chiqarish mamlakatning hajmi transformatsiyasini jadallashtirmoqda. Uzoq muddatda bu integratsiya O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror bardoshligini oshirish, innovatsion omillarga zamin hudud va jamiyatda ochiqlik ishtirokchilikni ta'minlashdan iborat bo'lib qolmoqda. Agar mendan ushbu sohada o'z pozitsiyami bildirishlarini so'rasalar men albatta raqamli texnologiyalarni qo'llab quvvatlayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi bo'yicha farmon va qarorlari. – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi raqamli transformatsiya bo'yicha qarorlari. – www.gov.uz
3. “Elektron hukumat to'g'risida”gi Qonun, 2015 yil – www.lex.uz
4. Karimov, B. (2020). Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va boshqaruv yo'nalishlari . Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. Tursunov, BO, & Rahmonov, FX (2021). Raqamli iqtisodiyot va elektron infratuzilma innovatsiyalar.. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, №3.
6. Abdullaev, A. (2022). Elektron hukumat va kompyuter texnologiyalari integratsiyasi . – “Axborot texnologiyalari va aloqalar” jurnali, №4.
7. Markaziy Osiyo uchun Jahon banki (2021). Markaziy Osiyo uchun raqamli iqtisodiyot: imkoniyatlar va muammolar . – www.worldbank.org